

QOVOQ URUG'I QURUQ EKSTRAKTI TEXNOLOGIYASINI O'RGANISH

Yuldasheva Shaxlo Xabibullaevna

Toshkent farmatsevtika instituti

shaxlo.dr@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10695568>

O'simliklar dorivor xomashyosidan suyuq, quyuq va quruq ekstraktlarni ajratib olish dorivor preparatlarni ishlab chiqarishda eng keng tarqalgan jarayonlardan biri bo'lib, hozirgi vaqtda quruq ekstraktlar ishlab chiqarish fitopreparatlar yaratish sohasida istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqot ishida qovoq urug'idan quruq ekstrakt olish texnologiyasi va uning sifat tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: quruq ekstrakt, ekstragent, qovoq urug'i, biologik faol moddalar

Mavzuning dolzarbligi. Qovoq turlari so'nggi yillarda tibbiyot va farmatsevtikada katta qiziqish uyg'otib, farmakologik ta'sirlari ularning ozuqaviy va fitokimyoviy tarkibi bilan tobora ko'proq bog'langan. Ushbu kimyoviy tarkibiy qismlari orasida karotinoidlar, tokoferollar, fenollar, terpenoidlar, saponinlar, sterollar, yog' kislotalari, funksional uglevodlar va polisaxaridlar ko'proq uchraydi [1]. Rasmiy meditsinada qovoq urug'i gijaga qarshi vosita va shu jumladan lentasimon gijja invaziyasida ham ishlatiladi. Qovoq moyidan "Tikveol" dorivor preparati tayyorlanadi [2]. Farmatsevtika ishlab chiqarishida chiqarilayotgan turli formadagi qovoqdan tayyorlangan preparatlar (ekstrakt, yog', kapsula va boshqalar) ich qotishida, parazitli (gijja) kasalliklarda, siydik ajratish qiyin bo'lganda qo'llaniladi [3]. Qovoq urug'ining maydalanib, 70% etil spirti yordamida olingan suyuq ekstrakti YuSSX-mass spektrometriya usulida tarkibidagi biofaol moddalar tahlil qilingan [4].

Tadqiqot maqsadi. Qovoq urug'idan quruq ekstrakt olish texnologiyasini o'rganish va biologik faol moddalar tahlilini amalga oshirish tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Qovoq urug'idan quruq ekstrakt olish texnologiyasini o'rganishda turli ekstragentlar qo'llagan holda olib borildi.

Buning uchun 600 g 03-0,5 mm o'lchamda maydalangan qovoq urug'ini avval ekstraksion benzin (0,5 l) bilan ekstraktorda perkolyasiya usulida 2 marta ekstraksiya qilindi. Bunda qovoq moyi ajratib olindi. Ekstraksiyadan keyingi kunjara qismi (shrot) quritkich shkafida 2 soat mobaynida 30-40°C da quritildi. So'ngra 70% spirtida 3 marta ekstraksiya qilindi. Barcha ekstraktlar birlashtirilib, rotor bug'latkich uskunasi tarkibidagi spirti haydaldi. So'ngra spirt haydab olingan ekstrakt ShS-80-01 SPU (Rossiya) quritkich shkafida quritildi va 20,0 g quruq ekstrakt olindi. Bunda dastlabki xomashyo massasiga nisbatan 3,3% unum bilan qovoq urug'ining quruq ekstrakti olindi.

Qovoq urug'idan olingan quruq ekstraktning sifat tahlili alyuminiy (III) xlorid 5% eritmasi bilan reaksiyasida eritmaning sariq qizg'ish rangga o'tishi bilan aniqlandi. Uning tarkibidagi flavonoidlar yig'indisi miqdoriy tahlili "Agilent 1200" rusumli yuqori samarali suyuqlik xromatografida o'tkazildi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, qovoq urug'i quruq ekstrakti tarkibida flavonoidlar yig'indisining o'rtacha miqdori lyuteoliga nisbatan 0,085 mg/g, rutinga nisbatan esa 1,1 mg/g miqdorda ekanligi aniqlandi.

Asosiy natijalar va xulosalar. Qovoq urug'idan quruq ekstrakt olish texnologiyasi o'rganildi, bunda usulning ishlab chiqarishda qo'llash jihatdan samaraliligi, dastlabki xomashyo massasiga nisbatan olingan quruq ekstrakt unumi va YuSSX usulida aniqlangan biologik faol moddalar miqdori tahlil qilindi. Olingan natijalar va o'rganilgan usul gelmintga qarshi dori vositasi olishda qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Salehi B., Capanoglu E., Adrar N., Catalkaya G., Shaheen S., Jaffer M., et al. *Cucurbits Plants: A Key Emphasis to Its Pharmacological Potential // Molecules.* -2019. -24(10). -P. -1854.
2. Михалёв Владимир Юрьевич. Разработка и стандартизация лекарственных препаратов тыквеол и тыквит, изготавливаемых из семян тыквы по безотходной

технологии // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата фармацевтических наук: 15.00.02 /Москва. -1997. -25с.

3. Ibragimov A.YA. SHifobaxsh ne'matlar. Toshkent. «Navro'z» nashriyoti, 2016. — 404s. -B. 168, 343-345.

4. Юлдашева Ш.Х., Тўхтаев Х.Р. Качественное определение биологически активных веществ методом масс-спектрометрии в составе жидкого экстракта тыквы // Материалы Международной научно-практической конференции “Современная фармация: новые подходы в образовании и актуальные исследования”. Materials International Scientific and Practical Conference “Modern pharmacy: new approaches in education and current research”-НурСултан, НАО “Медицинский университет Астана”. - 2021. -С. 168-170.